
AMINJONOVLAR XONADONIDA MANZARALI GULLARNING 30 XILI PARVARISHLANMOQDA

Toshloq tumanidagi "Do'stlik" mahalla fuqarolar yig'ini hududida yashovchi gulchi bog'bon Vahobjon Aminjonov xonadoni mehnati bilan el e'tiboriga tushgan ibratli oilalardan biridir.

V. Aminjonov mana o'n besh yildirki o'z xonadonida qiziqishlari samarasi bo'lgan gullar, manzarali daraxtlarni ko'paytirish bilan shug'ullanadi. Bu serqirra inson xonadoniga kirib borishingiz bilan huddi botanika bog'ida his qilasiz o'zingizni. Hovlida gullab turgan antiqa turdagi olma va pavloniya daraxti esa ilk taassurotdayoq xonadon sohibining manzarali va mevali daraxtlarga ham qiziqishini bildiradi. Xonadonda 1,5 sotixlik maydonda tashkil qilingan issiqxonada turli xil gullar gurkirab turibdi. 30 dan ortiq gul navlari parvarish qilinayotgan issiqxonada turli xil, turli shakldagi gullar ko'zni quvontiradi. 63 yoshni qarshilaganiga qaramay bardam, hali ham intilishda, izlanishda hayot kechirayotgan suhbatdoshimiz mana shu mehnatlari samarasi sabab ikki o'g'il, ikki qizni voyaga yetkazib uyli-joyli, mashinali qilib ulgurgan.

Avvaliga qiziqish tufayli boshlangan ishlar bugungi kunda o'z daromadi bilan oila farovonligi, to'kinchiligini ta'minlamoqda. Muhimi bu insonga qarab turib qanday yoshda bo'lmaylik izlanishdan, mehnatdan to'xtamasak ko'plab mo'jizalar yarata olishimiz mumkin ekanligiga ishonch hosil qilamiz.

2023-07-24 14:00:42